



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DISGRAFIYASI BO'LGAN O'QUVCHILARDA YOZISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI (XIX–XXI ASRLARDA)

Qaxxorova Saidaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi 2-bosqich magistri

Mamarajabova Zulfiya

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori,

pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX–XXI asrlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida disgrafiya bilan aziyat chekadigan bolalarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qiladi. Maqolada disgrafiyaning kelib chiqish sabablari, uning psixolingvistik, nevropsixologik va pedagogik xususiyatlari ilmiy adabiyotlarga tayangan holda umumlashtirilgan. Shuningdek, disgrafiyaning o'rganishning tarixiy jarayoni davomida xorijiy va o'zbek olimlarining yozma nutqni rivojlantirishga oid ilmiy ishlari hamda qarashlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: sabab, omil, disgrafiya, yozish kompetensiyasi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, korreksion pedagogika, psixolingvistika.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of developing writing competencies in primary school students suffering from dysgraphia during the 19th–21st centuries. The paper provides synthesized information, based on scholarly literature, about the causes of dysgraphia and its psycholinguistic, neuropsychological and pedagogical characteristics. It also highlights the research and perspectives of foreign and Uzbek scholars concerning the development of written speech and the study of dysgraphia throughout its historical progression.

Key words: cause, factor, dysgraphia, writing competence, primary school students, correctional pedagogy, psycholinguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы формирования письменных компетенций у младших школьников, страдающих дисграфией, в контексте исследований XIX–XXI веков. Представлены обобщённые сведения о причинах возникновения дисграфии, её психолингвистических, нейропсихологических и педагогических характеристиках на основе изучения научной литературы. Также раскрываются научные труды и взгляды зарубежных и узбекских исследователей, посвящённые развитию письменной речи и изучению дисграфии в исторической ретроспективе.

Ключевые слова: причина, фактор, дисграфия, письменная компетенция, младшие школьники, коррекционная педагогика, психолингвистика.

KIRISH

Bugungi kunda logopediya nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozishdagi maxsus buzilishlarni tadqiq qilishga va ularni bartaraf etishga qaratilgan korreksion ishlarning mazmunini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yozishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ifodalash uchun mamlakatimizda va xorijda turli shartlarni ifodalovchi atamalar qo'llaniladi, bu esa o'tkazilayotgan tadqiqotlarni sezilarli darajada murakkablashtiradi (T.V. Ahutina, O.A. Velichenkova, O.B. Inshakova, R.I. Lalayeva, G.V. Chirkina, O.B. Inshakova, A.N. Kornev, D.J. Bakker, A. Bouma, A.V.V. Ellis, C.J. Gardiyen) ^[1. 63–73]. O'qish buzilishini alohida, mustaqil xarakterdagi buzilish deb ta'kidlayotgan mualliflar bu buzilish tabiatini turlicha ko'rib o'tadilar.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qish buzilishi asosida ko'ruv idrokining to'liq emasligi yotadi, deb ta'kidlagan qarashlar ko'proq uchraydi. Shu qarashga muvofiq, disleksiyaning mexanizmi alohida harf va so'zlardagi ko'ruv obrazining buzilishi hisoblanadi. Shu bilan bog'liq holda o'qish va yozuvdagi kamchiliklarni "tug'ma so'z ko'rliqi" deb nomlana boshlandi. Bu yo'nalishning namoyondalari F. Varburg va P. Ranshburglardir. P. Ranshburg o'qishda kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan harfning ko'ruv idroki ustida eksperimental tekshiruv o'tkazdi. Uzoq davom etgan tekshiruv natijasida P. Ranshburg "tug'ma so'z ko'rliqi"da so'z shaklini bilishdagi qiyinchiliklar haqida xulosaga keldi. U ko'ruv idroki maydonini va ekspozitsiyaning davomiyligini, ya'ni bu jarayonda bola so'z va harfni taniy olishini tekshirdi. P. Ranshburg o'qish buzilishlari bor bolalarning idrok qilish maydoni tor va harf hamda so'zni ko'ra bilish jarayoni sekinlashgan bo'ladi, degan xulosaga keldi. P. Ranshburg o'qish buzilishlari asosida ko'ruv idrokining chegaralanganligi yotadi, degan xulosaga keldi. P. Ranshburg o'qish buzilishlarini birinchi marta og'ir va yengil darajaga bo'ldi. U o'qish buzilishining yengil darajasini "legasteniya" termini bilan, og'ir holatini esa "aleksiya" termini bilan atadi. Keyinchalik "disleksiya" va "disgrafiya", "aleksiya" va "agrafiya" tushunchalarini farqlash holatlari kelib chiqdi.

O'qish buzilishi bir xil optik buzilish sifatida aniqlanmagan edi. Y. Liming o'qish patologiyasida bir qator jarayonlarning buzilishini aniqladi.

1937-yilda o'z ishini bayon qilgan O. Ortonning tekshirishlari o'z vaqtida katta qiziqish uyg'otgan. O. Ortonning ishi bolalarda uchraydigan o'qish, yozuv va nutq buzilishlariga bag'ishlangan. O. Orton bolalarda o'qish buzilishlari keng tarqalganligini belgilab bergan. U savodga o'rgatishda bolalarda uchraydigan o'qishdagi qiyinchiliklarni katta kishilarning miyasi turlicha shikastlanishi natijasida paydo bo'ladigan o'qish buzilishlari bilan aralashtirilmaslik kerakligini ko'rsatib o'tdi.

Nevropatolog R.A. Tkachev va S.S. Mnuxin ishlariga alohida to'xtalib o'tish zarur. R.A. Tkachev tug'ma o'qish buzilishi bor bolalar orasida olib borilgan kuzatishlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi: aleksiya asosida mnestik buzilishlar, ya'ni xotira buzilishlari yotadi. Aleksiyada bola harflarni, bo'g'inlarni yoddan eslab qoladi, harfni ma'lum bir tovushga moslay olmaydi. R.A. Tkachev bunga nasliy omillar ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Mnuxinning "Tug'ma aleksiya va agrafiya haqida" deb nomlangan ishida o'qish buzilishlari intellekti normada bo'lgan bolalarda ham, aqli zaif bolalarda ham uchrashini ta'kidlaydi. Aqli zaiflikning turli darajasida aleksiya normal rivojlangan bolalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Mnuxin o'zining kuzatishlari va bir qator mualliflarning kuzatishlaridan kelib chiqib, quyidagi xulosaga keldi: o'qish buzilishi alohida buzilish bo'lmay, balki yana bir qator buzilishlar bilan birga keladi.

Yozishni tadqiq qilishda muhim jihat – uni murakkab va kompleks faoliyat sifatida tushunishdir. Bunda turli komponentlar mavjud:

- og'zaki nutqning tovush tahlili va sintezi artikulyatsiya ishtirokida amalga oshiriladi;
- fonemalarni grafikemalarga "qayta kodlash" ularning topologik xususiyatlari va fazoviy koordinatalarini saqlagan holda bajariladi;
- shuningdek, grafik sxemalarni tashkil etuvchi motor harakatlarga "qayta kodlash" amalga oshiriladi [1. 63–73].

Yuqoridagi komponentlarning har biri buzilganida, disgrafiya rivojlanishi mumkin.

O.B. Inshakova rahbarligida I.R. Bogatyryeva, T.Y. Obnizova, S.A. Ovsannikova tomonidan o'tkazilgan retrospektiv tahlil metodidan foydalangan holda yozuv bo'yicha uzoq muddatli tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar disgrafiyaning namoyon bo'lishining turli dinamik turlarini ajratishga imkon bergan bo'lib, ular an'anaviy korreksion o'quv metodlari qo'llaniladigan muntazam logopediya ishlari fonida kuzatiladi [2. 37–41].

Disgrafiya o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketmaydi, uni to'g'rilash va tuzatish zarur. Disgrafiyaning tahlil qilishda pedagoglar, logopedlar va psixologlar uning turli variantlarini ajratib ko'rsatadilar. Ular asosan fonematik tahlil qiyinchiliklari, artikulyatsiyaga yaqin tovushlar aralashuvi, harfning vizual tasvirini egallashdagi qiyinchiliklar, yozilishi o'xshash harflarning aralashuvi kabi mexanizmlar asosida yuzaga keladi (Xvatsev M.E. [3. 113–120]; Tokareva O.L.; Lalayeva R.I.; Inshakova O.B.; Sadovnikova I.N.; Kornev A.N. [4. 286]). Yozishda bolalarning nutq rivojlanishi defektlari, til tahlili va nutq diqqatining qiyinchiliklari aks etishi mumkin (Levina R.E.; Lalayeva R.I.; Sadovnikova I.N. [5. 280]).

Zamonaviy adabiyotda "disgrafiya" atamasi turlicha talqin qilinadi. Masalan:

- **R.I. Lalaeva:** "Disgrafiya – yozish jarayonining qisman buzilishi, barqaror va takrorlanuvchi xatoliklar bilan namoyon bo'lib, bu yuqori psixik funksiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq" [7. 129].
- **A.N. Kornev:** "Disgrafiya – yozish ko'nikmalarini grafikaga mos ravishda egallashdagi barqaror qobiliyatsizlik bo'lib, intellektual va nutqiy rivojlanishning yetarli darajasiga ega bo'lishiga qaramay, og'ir ko'rish va eshitish buzilishlarining yo'qligiga qaramay yuzaga keladi" [4. 286].

- **I.N. Sadovnikova:** “Disgrafiya – yozuvdagi qisman buzilish bo‘lib, asosiy alomati sifatida barqaror, maxsus xatoliklarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi” [8. 280].
- **A.L. Sirotyuk:** “Disgrafiya – yozish ko‘nikmalarining qisman buzilishi bo‘lib, miyaning po‘stlog‘i rivojlantirishining yetishmasligi yoki disfunktsiyasi bilan bog‘liq” [8. 288].

Birinchi marta bu buzilishlar nutq faoliyatining mustaqil patologiyasi ekanligini 1877-yilda A. Kussmaul ko‘rsatib o‘tgan. Keyinchalik esa o‘qish va yozuvda turlicha buzilishlari bor bolalarni ta’riflash ishlari yuzaga kela boshladi. Bu vaqtda o‘qish va yozuvdagi patologiyalar yozma nutqning buzilishi birligi sifatida ko‘rilardi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda XIX–XXI asrlarda disgrafiyaning o‘rganilishi, uning psixolingvistik, nevropsixologik va pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy manbalarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan retrospektiv va komparativ metodlardan foydalanildi. Ma’lumotlar klassik logopedik adabiyotlar, zamonaviy nevropsixologik tadqiqotlar, tarixiy manbalar hamda o‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida yig‘ildi. Olingan manbalar mazmunini va struktur tahlil orqali o‘qish–yozuv buzilishlarining etiologiyasi, mexanizmlari va tasniflari bo‘yicha umumlashtirildi. Shuningdek, ilmiy qarashlar dinamikasini aniqlash uchun qiyosiy tahlil qo‘llanilib, disgrafiya rivojlantirishining turli davrlarga xos xususiyatlari aniqlab borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida adabiyotlarda o‘qish buzilishlari umumiy aqli zaiflikning simptomi deb, va bu buzilishlar faqat aqli zaif bolalarda kuzatiladi, degan fikrlar tarqaldi (F. Baxman va B. Engler). XIX asrning oxiri, 1896-yilda V. Morgan yozish va o‘qishdagi kamchiliklarni aqliy jihatdan sog‘lom bo‘lgan 14 yoshli bolada kuzatgan. V. Morgan bu kamchilikni “orfografik jihatdan to‘g‘ri yozish va xatosiz bog‘lanishli o‘qish qobiliyatining yo‘qligidan” kelib chiqadi, deb aniqladi. V. Morgandan so‘ng ko‘pgina mualliflar (A. Kussmaul, O. Berkan) o‘qish va yozuvdagi kamchiliklarni aqli zaiflikka bog‘lamay, nutq faoliyatida mustaqil kamchilik sifatida o‘rgandilar.

Angliyalik okulist-shifokor Kerr va V. Morgan bolalardagi o‘qish va yozishdagi buzilishlarga bag‘ishlangan maxsus ishlarini matbuotda e’lon qildilar. Bu esa o‘qish buzilishining nazariy jihatdan o‘rganilishining boshlang‘ich bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Bir qancha vaqt o‘tgandan keyin, 1900–1907-yillarda, Glazgo shahridan okulist D. Ginshelvd aqliy darajasi normada bo‘lgan bolalarda uchraydigan o‘qish buzilishi holatlarini o‘z ishida bayon etdi. U bu buzilish har doim ham aqli zaiflik bilan birga kelmasligini tasdiqladi. D. Ginshelvd birinchi bo‘lib o‘qishni o‘zlashtirishdagi qiyinchilikni “aleksiya” termini bilan nomladi. Bu termin og‘ir va yengil o‘qish buzilishlari ma’nosini bildirar edi. Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ikki qarama-qarshi qarashlar mavjud edi: birinchi to‘lonidagi olimlar o‘qish buzilishini aqli zaiflikning bir simptomi deb qarashgan bo‘lsa, ikkinchi to‘lonidagi olimlar o‘qish nuqsonini alohida buzilish, aqli zaiflik bilan bog‘liq bo‘lmagan holat deb hisoblaganlar.

Respublikamiz umumta’lim maktablarida ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlariga zamin yaratish va darslarni integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish borasidagi muammolar bir qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sh. Yusupov, G. Axmedova, O. Oxunjonova, M. Haydarov, B. To‘xliyevalarning tadqiqot ishlari taqsimga loyiqdir [9, 10].

Respublikamiz umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish masalalari Q. Abdullayeva, S. Matchonov, B. Makulova, T. G‘afforova, G.A. Mamatova; yuqori sinf adabiyot darslarida o‘quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalarini shakllantirish masalalari A. Zunnunova, Q. Yo‘ldoshev, M. Mirqosimova, U.M. Marasulova, R.X. Niyozmetova, Q.P. Husanboyevlarning ilmiy ishlari tahlil etilgan; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari K. Qosimova, Sh. Yo‘ldosheva, X. G‘ulomova, A. Nisanbayeva tomonidan tadqiq qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, XIX–XXI asrlarda disgrafiya hodisasining ilmiy talqini logopediya, psixologiya va nevropsixologiya fanlarida izchil shakllanib borgan. Dastlab o‘qish va yozuvdagi buzilishlar umumiy aqliy zaiflikning bir ko‘rinishi sifatida baholangan bo‘lsa, keyinchalik A. Kussmaul, V. Morgan, D. Ginshelvd, O. Orton kabi tadqiqotchilar tomonidan bu buzilishlarning mustaqil psixolingvistik mexanizmlar asosida yuzaga kelishi ilmiy asoslab berildi. Ushbu tarixiy jarayon yozma nutqni o‘zlashtirish murakkab faoliyat ekanligini, unda fonematik tahlil, ko‘ruv-idrokiy jarayonlar, nutqiy-motor harakatlar va grafematik kodlash kabi komponentlar o‘zaro bog‘liq holda amal qilishini ko‘rsatadi. Zamonaviy adabiyotlarda disgrafiyaning turli tiplari va etiologik omillarining aniqlanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozish kompetensiyalarini shakllantirishda individual yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi.



Taklif sifatida, birinchidan, maktablarda o'quvchilarning fonematik eshituvini, ko'ruv idrokini, nutq-motor koordinatsiyasini rivojlantiruvchi mashqlarni tizimli joriy etish lozim. Ikkinchidan, logopedik diagnostika va korreksion metodikalarni yangilash, zamonaviy psixolingvistik yondashuvlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun disgrafiya belgilarini erta aniqlash bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish muhim. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda uy sharoitida yozma nutqni qo'llab-quvvatlovchi mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish o'quvchilarda yozish kompetensiyalarining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахутина Т.В., Бабаева Ю.Д., Корнеев А.А., Кричевец А.Н., Воронова М.Н., Егорова О.И. Влияние индивидуально-типологических особенностей высших психических функций младших школьников на формирование навыка письма // Вестник МГУ. – М., 2008. – №3. – С. 63–73.
2. Иншакова О.Б., Иншакова А.Г. Проблемные вопросы изучения нарушений письма у младших школьников общеобразовательных школ // Практическая психология и логопедия. – М.: Коррекционная педагогика, 2003. – №1–2 (4–5). – С. 37–41.
3. Хватцев М.Е. Аграфия и дисграфия // Хрестоматия по логопедии. – М., 2003. – С. 113–120.
4. Корнев А.Н. Нарушения чтения и письма у детей: Учебно-методическое пособие. – СПб.: МиМ, 2002. – 286 с.
5. Садовникова И.Н. Дисграфия, дислексия: технология преодоления [Электронный ресурс]. – М.: Парадигма, 2012. – 280 с. – (Университетская библиотека онлайн).
6. http://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=210584&sr=1 (murojaat sanasi: 23.10.2017).
7. Лалаева Р.И. Развитие фонематического анализа и синтеза. – М.: Владос, 2005. – 129 с.
8. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. – М.: Сфера ТЦ, 2003. – 288 с.
9. Kenjayeva M.A. 5–6-sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: Ped.fan.dok. (PhD). Diss. – Toshkent, 2021.
10. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010. – 314 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.